IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

MAXTUMQULI – MARDLIK KUYCHISI

Karimova Nozima
Farg‘ona davlat universiteti,o‘zbek tili yo‘nalishi 3-kurs talabasi,

Ilmiy rahbar: **Sh.Maxmidjonov**

Annotatsiya

Ushbu maqolada turkman adabiyotining yirik vakili Maxtumquli she'riyatida inson ruhiyati va nozik ichki olamini ochib berishda ijodkor uslubining o‘ziga xosligi hamda bu she'rlarning jozibadorligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar

She'riyatidagi g'oya ko'lami, badiiy usullar, psixologik mazmun, badiiyati, mavzu ko'lami.

Bizgacha «mardlik kuychisi» deb nom olgan Maxtumqulining lirik, falsafiy va nasihat xarakteridagi 20 ming misraga yaqin she’rlari yetib kelgan. Uning she'rlari o'qilishi, odamga tez singishi, izchilligi bilan boshqa lirik shoirlar ijodidan ajralib turadi. Maxtumquli xalq dardini oddiy so'zlar bilan katta bir dars yoki mantiq bilan beradi. Uning badiiyat olamidagi uslublarning barchasi farqli, ammo ulardan anglashiladigan ma'no-mazmun har qanday o'quvchi uchun birdek tushunarli.

Maxtumqulining ilk she’ri "Turgil, dedilar" manzumasidir. Shoir she’rda Alloh taolo ato etgan ma’naviy ikromni shukrona va hissiyot bilan bayon etadi:

Bir kecha yotardim, tunning yarmida,

To‘rtta otliq kelib, "Turgil!", dedilar,

"Xabar bergaydirmiz fursat yetganda,

Bul yerda erlar bor, ko‘rgil!" dedilar.

"Bir kecha yotardim, tunning yarmida" misralarida shoirning tunda barcha maxluqot va hatto tabiat ham shirin uyquga ketgan payti tasviri berilgan bo'lsa, boshqa tomondan esa ayni shu vaqt inson ruhiyatida o'tmish voqealari jonlanishi aks etgan.

Yoki ijodkorning "Yog'iydir yog'iy" she'rini olsak:

Dunyo, dushman turar, g’ofil odamzod,

Mol bilan ovladi, yog’iydir, yog’iy.

O’n sakkiz ming derlar, kulli olamni,

Gunohi, fasodi yog’iydir, yog’iy.

Bu misralar orqali dunyoni odamzodning dushmani ekanligini va unda yashovchi odamlarni esa g'ofil deb ataydi. "G'ofil" "G'aflatda qolgan, hech narsadan bexabar" deganidir. Ushbu so'z bilan esa "dushman" dunyoda hamma narsadan bexabar insonlar bor va bu dushman ularning eng qimmatli narsalari - "vaqt" larini tortib olayotganini sezishmaydi.Bu so'zlarning isboti qilib "Mol bilan ovladi,

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

yog'iydir yog'iy" misralari berilgan. Manbalarda aytilishicha, o'n sakkiz ming olam borligi va biz uning borligiga faqat falsafiy qarashlarga ega ekanimiz ma'lum. Maxtumquli ham odamlarga eslatma tarzida aynan shu misralardan foydalanadi. O'n sakkiz ming olamning gunohi ham, fasodi ham barchasi bizga dushman deydi. Gunohlarning ko'pligi insonni jahannamda azob chekishiga sabab bo'ladi degan farzni ham shu o'rinda keltirish mumkin.

Qul, qorabosh moling, oting, eshaging,

Ot, yarog'-asbobing, to'ning, to'shaging,

Sevgili xotining, o'g'ling-ushog'ing,

Dunyoning bor zoti yog'iydir, yog'iy.

Bu yerda esa inson bu dunyoda erishadigan va shu olamga tashlab ketadigan barcha narsalarning odam uchun yog'iy ekanligi aytiladi.

Dunyo bir saroydir – soz bilan suhbat,

Sipohiga – dastgoh , shohlarga shavkat,

Shohlardan aylansa arkoni-davlat,

Barisi aylandi, yog'iydir, yog'iy.

Dunyoni saroyga, soz bilan suhbat ma'nosida esa unda yashovchilar, sipohiga dastgoh bo'lsa, shohlar shavkatning sohibi ma'nosini anglatyapti. Tarixdan ma'lumki, qo'shinsiz, sipohsiz shoh shoh emas, uning qudratida, bosib olingan joylarida qo'shinning xizmati katta. Ular barcha shavkat, olqishlarga sazovor bo'lishadi. Shohlardan davlat ham, xalq ham, vazirlar ham yuz o'girgan payt, ularning bari shohga dushman bo'ladi, joniga qasd qiluvchiga aylanadi. Shu sabab, Yog'iy so'zidan bir xil uslubda kelib turli ma'nolarni tasvirlashda foydalanilmoqda. Har bir o'rindagi yog'iy so'zi qaysidir kulfatni yo kulfat keltiruvchi shaxsni anglatyapti.

Ot qarisa qolar, to'ydan, bayroqdan,

Bo'ri tishdan qolar, burgut tirnoqdan,

Boylar past ko'rinar quldan, qirnoqdan,

Bandisi, ozodi, yog'iydir, yog'iy.

Qari otni hech qaysi aqlli kishi to'yda uloq chopgani, uni hammaga ko'z-ko'z qilish uchun olib chiqib kulgi bo'lgisi kelmaydi. Yoshi o'tgan ot omoch tortishdan yoki qazi bo'lishdan boshqasiga yaramaydi. Bo'rining eng kuchlisi bu uning yoshidir, qari bo'rining yumshoq go'shtni tishlagani ham tishida kuchi qolmaydi, burgutning kuchdan qolganida esa o'ljani ushlash, ilib otish uchun tirnoq qolmaydi. Boyning puli ko'p bo'lsa tanish oshi ko'p bo'ladi, uning boyligi kamaysa yonidagi do'stlar soni ham kamayadi. Bu bilan dunyo boyliklaridan insonga hech qanday foyda yo'qligi, mol- dunyo ham, do'st-yor ham odamga oxirigacha vafo qilmasligi aytiladi.

Qabrda yorilar bag'ring pudagi,

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

Joningga balodir hassosi-sog’i.

Yigitlik mavsumi yetishgan chog’i,

Tegsa xazon bodi, yog’iydir, yog’iy.

Odamning qiyomati qabrga kirganidan boshlanadi deyiladi. Qabrga qo'yilgan har bir ruh tanada qayta tiriladi va uning bu olamda qilgan yaxshi va yomon ishlari sarhisob qilinadi. Yaxshi amallari uchun qabr azobidan qutilib qolsa, yomonlari uchun qattiq jazoga mahkum bo'ladi.Qabrdagi savol javoblarda soxtalik, yolg'on yo'q. U haqqoniy, odam qalbidagi barcha sirlarini aytishga majbur qiladi. Shu sababkim, yigitlik bahorini xazon qilguvchilar har narsani o'z vaqtida qadrlamoqlari kerak.

Maxtumquli, haqiqatdan suz so’zing,

“O’ng ko’zimsan” desang, tirnar chap ko’zing,

Mosuvoni tashlab, qo’ygil mijozing,

Bir Haqdan o’zgasi yog’iydir, yog’iy.

Maxtumquli gapingni gapir, barini ayt, eshitishsin, avvalo o'zing tingla deyotgandek jaranglayotgan bu jumlada o'ng ko'zim deb o'zining yaxshi amallarini, ezgu fazilatlarini, odamlarga mehr-muhabbatini aytmoqda, bu ishlardan esa o'zining chap qo'li ya'ni bad fe'li, yomon amallari ozorlanishini, ularga ziyon keltirishi mumkinligi haqida fikr yurityapti. O'ziga keluvchi barcha narsani, u xoh yaxshilik bo'lsin, xoh yomonlik, barchasini Allohdan deb bilishiga izoh beryapti. Hamda bu olamda Haqdan boshqa barchani o'zi uchun kulfat keltiruvchi, jabr olib keluvchi ekanini aytib o'tmoqda. Insonlar faqat Haqdan umidvor bo'lishi, uning dargohi keng ekanligini yozadi.

Maxtumqulining kuchli ruhiyatni qamrab oluvchi qobiliyat egasi ekanini uning asarlarini o'qish davomida bilish mumkin. Uning ijodida asosan, obrazlar ko'lami va g'oyaviy o'ziga xoslik ajralib turadi. U insonning ichki olamini yaxshi anglaydi, ularni Haq yo'liga qaytishlarini va bu yo'lda sobit turishlarini, olamni, borliqni anglashlarini qayta-qayta ta'kidlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Maxtumquli. She’rlar. Maqsud Asror tarjimalari. Turk xalqlari tarixi, adabiyoti, madaniyati.

2. Quramboyev K., O‘zbek-turkman adabiy aloqalari, T., 1978. Bahodir Karimov.

3. Tanlangan asarlar, T., 1963;

4. Maxtumquli she’riyatidan, T., 1976;

5. Saylanma, T., 1995;

6.Turkman mumtoz she’riyati durdonalari, Urganch, 2000.

7. Sayidolimov, J. B. O. G. L. (2023). AGIOGRAFIK OBRAZLARNING\ MAZMUN-MOHIYATIDAGI EVRILISHLAR. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(3), 1318-1322.